

Jahon va moliya bozorlariga oid sharh


26 may, 2025 yil



Bankni strategik rivojlantirish
departamenti

SQB, Ipoteka va NBU evrobondlarining daromadliligi (2025-yil 1 yanvar-26 may, Bloomberg ma'lumotlariga ko'ra)

UzSQB, Ipoteka banki va O'zmilliybank evrobondlarining daromadliligi, foizlarda




- 2024-yilning yozida SQB Londondagi fond birjasida xalqaro obligatsiyalarni joylashtirdi. Savdolarining birinchi kunida ularning daromadliligi 9,362%ni tashkil etdi.
- Mart oyida SQB obligatsiyalarining daromadliligi o'sishni boshladi. O'tgan hafta boshida daromadlilik 8,269% ga yetdi. Haftaning oxiriga kelib esa bu ko'rsatkich pasaydi va 8,242% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon daromadlilik 7,837% – 9,126% gacha o'zgarib turdi. Ushbu tendensiyalarga asoslangan holda, yil oxiriga kelib SQB evrobondlarining daromadliligi 7,8% – 9,5% atrofida bo'lishi mumkin.
- O'tgan hafta NBU evrobondlarining daromadliligi 7,893% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik pasayib 7,768% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 7,561% – 8,878% gacha o'zgarib turdi. Ayni vaqtdagi tendensiyalar asosida, bizning prognozimizga ko'ra, yil oxiriga kelib daromadlilik 7,3% – 8,9% gacha yetishi mumkin.
- O'tgan hafta Ipotekabank evrobondlarining daromadliligi o'sishni boshladi va 6,776% ga yetdi. Biroq, haftaning oxiriga kelib daromadlilik ko'tarilib, 6,898% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon daromadlilik 6,075% – 8,533% gacha o'zgarib turdi. Bizning prognozlarimizga ko'ra, yil oxiriga kelib daromadlilik 6,6% – 7,7% oralig'ida bo'lishi kutilmoqda.

SOFR va Euribor

AQSH va Yevropadagi banklararo kreditlar bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi


SOFR dinamikasi



Yil boshidan buyon SOFR stavkasi 4,26-4,49% atrofida barqaror bo'lib turmoqda. Haftaning boshida SOFR stavkasi 4,29% ni tashkil etdi, haftaning oxiriga kelib esa u biroz ko'tarilib, 4,26% ga yetdi. Bu bozor likvidligi va monetar siyosatdagi kutilmalarning o'zgarishlarini ko'rsatadi. Federal rezervning foiz stavkalari bo'yicha pozitsiyasi SOFR stavkasi darajasini belgilashda davom etmoqda. Siyosiy o'zgarishlar kutilmalari stavkada kichik o'zgarishlarga olib kelishi mumkin.

Hozirgi vaqtda tahlilchilar yil oxiriga borib, SOFR stavkasi 3-3,5% gacha pasayishini prognoz qilmoqda, bu esa iqtisodiy faollikning sekinlashishi mumkinligi bilan bog'liq ravishda pul-kredit siyosati yumshatilishi bo'yicha kutilmalar bilan izohlanadi.

Euribor dinamikasi




Euribor kutilganidan tezroq pasaymoqda. Yevropa Markaziy banki foiz stavkasini tez sur'atlar bilan kamaytirishni davom ettirmoqda. Buning sabablaridan biri – inflyatsiyaning pasayishi. Yevropadagi ko'plab ipoteka kreditlari bog'langan Yevropa banklararo stavkasi (Euribor) joriy haftaning boshiga kelib 2,049% (3 oylik) va 2,118% (6 oylik) darajalariga tushdi. 2023-yilning oktyabr o'rtalarida foiz stavkasi 4% dan oshgan edi. Euribor stavkasining tarixdagi eng yuqori darajasi 2008-yilning qishida qayd etilgan bo'lib, u deyarli 5,5% ni tashkil etgan. Yil boshidan buyon maksimal ko'rsatkichlar 2,685% (6 oylik) va 2,789% (3 oylik) ni tashkil etdi.

Ko'pchilik ekspertlar bank sektorida ushbu stavkaning yanada pasayishini, xususan 2025-yil oxiriga kelib 2% ga tushishi mumkinligini prognoz qilmoqdalar.




O'zbekiston Respublikasi valyuta birjasidagi savdo hajmi, mln dollar



- ✓ O'tgan hafta valyuta birjasidagi savdo hajmi **867,6** million dollarni tashkil etdi, bu o'tgan haftaning savdo hajmiga nisbatan **159,0** million dollarga kamroq.
- ✓ O'tgan haftaning boshida milliy valyutaning dollarga nisbatan maksimal kursi **12 858** so'mni tashkil etdi, keyin haftaning oxiriga kelib ko'tarilib, **12 915** so'mga yetdi.
- ✓ Har yili so'm o'rtacha **3,5-4,5%** ga devalvatsiyaga uchraydi, 2023-yildan tashqari (**9,77%**), bu holat Rossiya valyutasi devalvatsiyasi eksport tushumlari kamayishi va mehnat migrantlarining pul o'tkazmalari bilan bog'liq edi. Joriy yil boshidan buyon devalvatsiya **0,09%** ni tashkil etdi. Yuqorida aytib o'tilgan omillarni inobatga olgan holda, yil oxiriga kelib kurs **13 420-13 550** so'm atrofida bo'lishi kutilmoqda.

Dollarning so'mga nisbatan almashinish kursi




26.05.2025 yil holatiga ko'ra, aholi uchun dollar sotib olishda eng foydali kurs **Anor bank**da qayd etilgan – **12 930** so'm. Boshqa banklarda esa kurs **12 940 – 12 980** so'm atrofida o'zgarib turdi.



Aholi uchun dollar sotish bo'yicha eng foydali kurs **Asaka bank**da qayd etilgan – **12 900** so'm. Boshqa ko'plab banklarda esa kurs **12 890-12 855** so'm atrofida bo'lgan.

USD-RUB dinamikasi




➤ Dollar vaqtincha 76–78 rublgacha tushishi mumkin

Rublning mustahkamlanishi nafaqat tashqi, balki ichki omillar bilan ham bog'liq: tashqi savdo profitsiti yuqori bo'lishi, Markaziy bankning qat'iy monetar siyosati hamda soliq muddatiga tayyorgarlik ko'rilishi, bu davrda eksportyorlar byudjetga bo'lgan majburiyatlarini qoplash maqsadida chet el valutasini sotishni oshiradilar.

Hozirgi dinamika hisobga olinsa, dollar vaqtincha 76–78 rubl darajasini sinab ko'rishi mumkin, ayniqsa soliq to'lovlari oldidan va eksportdan yuqori daromad saqlansa.

RUB-YUAN dinamikasi




➤ Rubl kursi yuanga nisbatan biroz pasaymoqda

So'nggi kunlarda Rossiya rubli kursi Xitoy yuani bilan nisbatan ozgina pasayish ko'rsatdi. Kurs 11,1 darajasida barqaror bo'lib turgan, keyin haftaning oxirida biroz pasayib, 10,9 rubllik qiymatga tushdi.

Bunday dinamika jahon moliya bozorlaridagi tebranishlar va Rossiya bilan Xitoy o'rtasidagi savdo oqimlaridagi o'zgarishlar bilan bog'liq. Tahlilchilar qisqa muddatli istiqbolda tashqi siyosiy omillar va iqtisodiy ko'rsatkichlar sababli kursda yana tebranishlar bo'lishi mumkinligini ta'kidlashmoqda.

EUR-USD dinamikasi




➤ Evro kursining dollarga nisbatan tebranishlari

Evro kursi dollarga nisbatan 1,1242 dan 1,1364 gacha o'sdi.

Evrozona hududida inflyatsiya va sanoat ishlab chiqarishiga oid ijobiy ma'lumotlar e'lon qilindi, bu investorlarning ishonchini oshirdi va Yevropa Markaziy bankining foiz stavkalarini oshirish kutilishlari evroni yanada jozibador qildi. Shu bilan birga, AQSh iqtisodiy ko'rsatkichlari prognozlardan zaifroq chiqdi, bu esa dollarning zaiflashishiga olib keldi. Ushbu omillar jamlangan holda evro va dollar kursining hozirgi dinamikasini shakllantirdi.

Asosiy xom ashyo tovarlari narxlariga oid tahlil

Oltin narxlar dinamikasi
(bir untsiya uchun,
AQSh dollarida)




➤ Dunyo oltin narxlar keskin pasayishdan so'ng qayta o'sdi

Dunyo oltin narxlar keskin pasayishdan so'ng global savdo tarangligi kuchayishi va AQSh dollarining zaiflashuvi fonida qayta o'sdi. Oltin narxlar tungi savdolarida moliyaviy va savdo sohasidagi xavotirlar, shuningdek Moody's kredit reyting agentligining kutilmagan qarori ta'sirida keskin oshdi.

O'tgan hafta Moody's agentligi AQShning uzoq muddatli kredit reytingini pasaytirib, bozorni hayratda qoldirdi. Bu signal dunyoning eng yirik iqtisodiyotining qarzlari qoplash qobiliyati borasidagi noaniqlikni kuchaytirib, investorlarni oltin kabi xavfsiz aktivlarga sarmoya kiritishga undamoqda.

Brent nefti narxlar dinamikasi
(bir barrel uchun,
AQSh dollarida)




➤ Neft narxlar jahon birjalarida tushmoqda

Neft narxlar AQShdagi kutilmagan zaxiralar o'sishi tufayli pasaydi. Bu dunyoning eng yirik neft iste'molchisi bo'lgan mamlakatdagi talabga oid xavotirlarni keltirib chiqardi. Shu sababli, Brent markasining iyul oyidagi fyucherslari narxi bir barrel uchun 64 dollarga tushib, 1,5 foizdan ortiq pasaydi.

OPEK+ davlatlari jahon narxlar pasayishiga qaramay, joriy neft qazib olish kvotalarini o'zgartirmaslikka qaror qildi. Bu bozor muvozanatini saqlash va xom ashyo narxini barqarorlashtirishga qaratilgan harakatdir. Biroq mutaxassislar qayd etmoqdalar-ki, talab yanada yomonlashsa, siyosatni yana bir bor qayta ko'rib chiqish talab etilishi mumkin.

TTF gaz narxlar dinamikasi
(megavatt-soat uchun,
AQSh dollarida)



➤ Yevropada gaz narxlar eng noqulay paytda oshmoqda

Yevropada tabiiy gaz narxlar Norvegiyadagi yirik konlarda rejalashtirilmagan quvvatlarning qisqartirilishi e'lon qilingandan so'ng oshishda davom etmoqda. Bu mintaqaning asosiy yetkazib beruvchisidan yetkazib berish hajmining kamayishiga olib keldi. Yevropa o'tgan qishda zaxiralari odatdagidan kam bo'lgan katta yerosti omborlarini to'ldirishga majbur, ammo kutilmagan uzilishlar yoki talabdagi keskin o'zgarishlar qo'shimcha ta'minotni jalb qilishni qiyinlashtirmoqda. Gaz in'ektsiyasi davom etayotgan bo'lsa-da, narxlar yangiliklarga qarab o'zgarib turmoqda.

Yangiliklar

JPMorgan va Wells Fargo, hamkor do'konlarida yuzni tanish orqali to'lovni sinovdan o'tkazmoqda, bu esa xarid qilish jarayonini kartalar yoki smartfonlardan foydalanmasdan ancha osonlashtirmoqda.

Ipoteka kreditlash jarayonini avtomatlashtirish
Wells Fargo va Nationwide sun'iy intellekt yordamida ipoteka kreditlarini berish jarayonini tezlashtirmoqda, tasdiqlash muddatini haftalardan bir necha soatgacha qisqartirmoqda.

American Express va Barclays virtual kartalarni joriy etmoqda, bu kartalar foydalanuvchilarga limitlarni tezda o'zgartirish, ayrim xarajatlar kategoriyalarini blokirovka qilish va valyutani tanlash imkonini beradi.

Royal Bank of Canada (RBC) open banking API ni joriy qilmoqda, bu uchinchi tomon dasturchilarga innovatsion moliyaviy ilovalar va xizmatlar yaratish uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda.

